



ERTAKLARDA FANTASTIKA VA REALIZMNING POETIK UYG'UNLIGI

Boboqulova Mohina Norsafar qizi

mohinaboboqulova689@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya
fakulteti magistratura bosqichi talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17984630>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 19-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

Ertak, mifologiya, tulki, bo'ri, echki, obraz, xalq og'zaki ijodi, realizm, fantastika, ramz, qahramon, madaniyat, tasvir, donolik, ayyorlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada xalq ertaklarida va mifologik tasavvurlarda uchraydigan tulki, bo'ri hamda echki obrazlarining badiiy va ma'naviy talqini tahlil qilingan. Asarda ushbu hayvonlar timsoli orqali turli xalqlarning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari hamda ijtimoiy hayotdagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqotda g'arb va sharq adabiyotida tulki va bo'ri obrazlarining o'ziga xos talqinlari qiyosiy tahlil qilinadi. Muallif o'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar orqali realizm va fantastikaning uyg'unligini yoritadi.

Xalqlar mifologiyasida fantastik voqelik va obrazlarni tasvirlashda ularga insoniy va ilohiy sifatlarni ishlatish orqali ulardagi o'ziga xos qarashlar asosida yuzaga chiqadigan afsona va rivoyatlarni hosil qiladi. Folklor va badiiy adabiyotdagi qarashlarning mushtarakligi har ikkalasi ham madaniyatlarning asosi bo'lgan mif va insonlarning dastlabki jamoaviy guruhlarida dunyoni anglash haqidagi ilk qarashlariga asoslanishini ko'rsatadi. Ushbu qarashlar asosida vujudga kelgan g'ayrioddiy obraz va voqeliklar har bir xalq folklorida turlicha yoki o'xshab ketishi mumkin. Masalan, tulkining tabiiy xususiyatini organik kimyo fanlari professori J.Barnes "Mushuk bo'lib ko'rinishga harakat qilayotgan it kabi sirpanib yurish" qobiliyatiga ega hayvon deya ta'rif beradi.¹ Bundan kelib chiqadiki, tulkining hayotdagi xususiyatlari uning xalq og'zaki va yozma adabiyotida uning badiylashgan qahramonlik xulqini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Hillsdale universiteti tadqiqotchisi S.Keller "Bu "ilohiy-hayvon" nayrangchisi o'zi duch keladigan qiyinchiliklarga vositachilik qilib, sehrli yechimlar bilan yakunlash yo'lini ko'rsatib beradi. Qahramon o'zining yakuniy yo'lida o'zini namoyon qilsa-da, qiyinchiliklar juda kuchli va juda g'alati dunyolarni bosib o'tishi kerak" ligi va uning jamiyatdan ayri tarzda har qanday ishda yolg'iz ishtiroki orqali gavdalanadigan obrazi orqali g'arb adabiyotidagi o'ziga xos o'rnini belgilab beradi.² Sharq mamlakatlari mifologiyasida tulki donolik, oqillik, go'zallik va turli nayranglar orqali voqealar ketma-ketligiga kuchli ta'sir qiluvchi ayol jinsiga mansub qahramon deya ta'riflanadi. o'zbek adabiyoti, shu jumladan,

¹ **Kellar, Sofie.** *The Huldra and Kitsune: Phenomenological Fox Tricksters of the East and West.* Hillsdale College, p. 5.

² **Kellar, Sofie.** *The Huldra and Kitsune: Phenomenological Fox Tricksters of the East and West.* Hillsdale College, p. 23.

folklori namunalarida ham voqelik sujetida jamoaning bir qismi sifatida tasvirlanmasligi va vaziyatda o'zining donolik bilan yechim topib, ayyorlik yo'li bilan vaziyatni o'zi uchun ijobiy tarafga o'zgartira olishi tulki obrazining asosiy xususiyati hisoblanadi.

Bo'ri xususida ham olimlar fikri ham turlicha qarashlar asosida farqlanadi. Bern universitetining markaziy taraqqiyot va atrof-muhit ilmiy tadqiqotlar bo'yicha keksalar tadqiqotchisi, shvetsariyalik olim A.Walner uning tabiiy xususiyati haqida: "Uning qachondir o'zgarishi uchun umid yo'q. Chunki bo'rilar tishlarini yo'qotishi mumkin, lekin bo'rilik tabiatini emas" degan fikrni keltirib o'tadi.³ "Tadqiqotchilar bo'ri va ularning to'dasi bilan tuzoq qo'yishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, chunki har qanday turdagi tuzoqqa tushganidan so'ng, bu hayvonlar bu voqeani butun hayotlari davomida eslab qolishadi va qachondir yana tuzoqqa tushish ehtimoli juda past"ligi haqidagi ushbu olimning fikri uning badiiy ijodda bo'ri tasviridagi qat'iyat va qasoskorlik xislatlariga asos bo'lganini anglatadi.⁴ Xususan, bo'ri kuchli rahbar sifatida tan olingani, o'zini oliy maqsadlar uchun xavf ostiga qo'yishdan qo'rqmasligi va yovvoyi muvaffaqiyatli avlodni tarbiyalash qobiliyatiga egaligini Rim shahrining asoschisi bo'lgan aka-ukalarni va *Jozef Redyard Kiplingning "Maugli" asarida ham Mauglini bo'ri tarbiya qilgani haqidagi voqeliklarda aks ettirilgani ham g'arb adabiyotining bo'ri obrazini tasvirlashdagi muhim omil ekanligini aks ettiradi.*⁵ *Yunon masalchisi Ezopning "Bo'ri va it" masalida itning bo'ynida halqa bilan xo'jayinining har kunlik beradigan ovqatini kutib yashashdan ko'ra erkin holda o'zi uchun ov qilishni afzal ko'rgan bo'ri obrazida ham uning tobelik, qaramlik va tutqunlikka ko'nmas hamda o'z erkini qadrlaydigan insonlar qiyofasini ochib berganini ko'rish mumkin.*⁶ *Bu orqali bo'rining ozodlik timsoli sifatida qaralishining asosli ekanligini ko'riladi.*

Xalq og'zaki ijodi namunalari matnida uchraydigan mifologik obrazlar va voqeliklar har bir xalq madaniyatidagi o'rni hamda keng jamoatchilikning ma'naviy qiyofasiga, qarashlariga ko'ra farqalanishi mumkin. Masalan, o'zbek xalq ertaklaridan bo'lgan "Bo'ri va tulki" ertagidagi qahramonlarining qiyofasini ochib beruvchi xususiyatlar aynan o'zbek millatiga xos madaniy kod sifatida qaralishi mumkin. Ya'ni, o'zbek millatiga doir adabiyot namunalarida tulki obrazining ayyor, ishbilarmon, aldashga moyil yolg'onchi va xiyonatkor mavjudot sifatida shu sifatlarga ega insonlar qiyofasini shakllantirgan bo'lsa, bo'ri obraziga ba'zi o'rinlarda qat'iylik, erkinlik, jasorat, vahshiylik kabi; ba'zi o'rinlarda esa laqmalik, ishonuvchanlik, beo'xshov xatti-harakatlari tufayli yomon vaziyatga tushib qoladigan hayvon deb qaraladi. o'zbekistonda maktabgacha tayyorlov darslarida o'qitiladigan "Alifbe" o'quv darsligidagi yuqorida ta'kidlagan ertagimizda ham bo'ri ayyor tulkinging gapiga ishonib, uzum yeb shishib ketgan qorni bilan

³ Wallner, A. (1998). The role of fox, lynx and wolf in mythology. In *Workshop on Human Dimension in Large Carnivore Conservation: Contributions to the Workshop 26.11.97 at Landshut, Switzerland* (KORA Bericht Nr. 3, pp. 31-33).

⁴ Bukowick, K. E. (2004). Truth and symbolism: Mythological perspectives of the wolf and crow. *Boston College Electronic Thesis or Dissertation*, p. 64. Retrieved from <http://hdl.handle.net/2345/489>

⁵ Bukowick, K. E. (2004). Truth and symbolism: Mythological perspectives of the wolf and crow. *Boston College Electronic Thesis or Dissertation*, p. 61. Retrieved from <http://hdl.handle.net/2345/489>

⁶ Bukowick, K. E. (2004). Truth and symbolism: Mythological perspectives of the wolf and crow. *Boston College Electronic Thesis or Dissertation*, p. 66. Retrieved from <http://hdl.handle.net/2345/489>

⁷ Alifbe: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- sinfi uchun darslik Mualliflar. R. Safarova, M. Inoyatova, M. Shokirova L. Shermatova. 17-nashri O'qituvchi NMIU, 2019. -B. 34.

⁸ Alifbe: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- sinfi uchun darslik Mualliflar. R. Safarova, M. Inoyatova, M. Shokirova L. Shermatova. 17-nashri O'qituvchi NMIU, 2019. -B. 76.

uzumzordan qocholmay, bog'bonning kaltagi ostida qolishi bo'ri bilan qaysi hayvon obrazining qarama-qarshi qo'yilishiga ko'ra obraz sifatida qaysi uning xususiyatlariga urg'u berilishini ko'rsatadi.⁷ Shu o'rinda aslida ham turkiy xalqlarda bo'ri obrazi laqma hayvon sifatida qaraladimi degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki turkiylarning kelib chiqishi va boshqa xalqlarning turkiylarga bergan xarakteristikasiga ko'ra bo'ri totemistik mavjudot bo'lishi bilan birga, o'zining bo'ysunmaslik, erkinlik va qat'iyatlikni o'zida jamlagan ramziy obraz deya ko'riladi. Yuqoridagi ertakda voqelik deyarli barcha xalqlarda donolik, ayyorlik, yolg'onchilik, ustomonlik ramzi bo'lgan tulkining faqat ovning qanday kechishi va o'ljaning holati qiziqtiradigan bo'rining aldanib qolishi sujetdagi muvozanatni ta'minlash uchun shunday tasvirlangan. Shu jumladan, ushbu darslikdan o'rin olgan "Bo'ri bilan echki" ertagi ham och bo'rining uddaburon echkining "og'zingni ochib tur, men shundaygina og'zingga kiranman-qo'yaman" degan gapiga ishonib, o'zining laqmaligi tufayli echki shoxi zarbidan hushidan ketadi va o'ljasidan ayriladi.⁸ Bu o'rinda ham ko'plab o'zbek xalq ertaklarida bo'lgani kabi qiyin vaziyatlarda muqobil yechim topa oladigan hayvon obrazi sifatida echki ko'rsatilgan. Tarixdan ma'lumki, turkiylar ko'chmanchilik davridan o'troq holda unumdor yerlarda muqim qolgunicha chorva mollari va chorvachilik borasida yaxshi tajribaga ega bo'lgan. Shunga ko'ra xalq orasidagi mashhur ertaklarda echki obrazining tulki qatorida aql-zakovatda boshqa hayvonlardan ustun turishi tasvirlangan voqeliklar uchrab turadi. Echki hayotda boshqa chorva mollari orasida tabiatan sho'xroq, qaysar, yemish va suvni ham tanlab yeyishi va hatto qo'ylar podasiga boshchilik qilish uchun aynan echkilarning eng maqbul variant sifatida cho'ponlar tomonidan ko'rsatilishi ham ertakda keltirilgan echkining xarakteriga asos bo'lgan deyish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tulki, echki va bo'ri obrazlari badiiy matn ichida, voqealar sujeti davomida va qanday xususiyatlarga ega bo'lgan qahramonlar doirasida o'ziga xos xoh salbiy, xoh ijobiy xislatlarini namoyon qilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan "Bo'ri va tulki" ertagida tulki o'zining ayyorligini bo'rining ochlik holatidan foydalanib ustun kelishi ertak voqealari ketma-ketligida odatiy hollardan hisoblangani holda, bo'rining ham faqat laqmalik sifatlari bilan cheklanib qolmasligimiz lozimligini ko'rsatadi. Chunki turkiylarning mifik qarashlaridagi va o'zbek xalq ertaklaridagi bo'ri obrazi bir-biridan farq qiluvchi jihatlariga davrlar o'tishi bilan insonlarning borliqqa nisbatan munosabati o'zgarishi hamda maishiy-hayotiy tajribalarining mukammallashishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alifbe: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. / R. Safarova, M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermatova. — 17-nashr. — Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2019. — 80 b.
2. Bukowick, K. E. Truth and symbolism: Mythological perspectives of the wolf and crow. — Boston College Electronic Thesis or Dissertation, 2004. — 64 p. — URL: <http://hdl.handle.net/2345/489>
3. Kellar, S. The Huldra and Kitsune: Phenomenological Fox Tricksters of the East and West. — Hillsdale College.
4. Wallner, A. The role of fox, lynx and wolf in mythology. // Workshop on Human Dimension in Large Carnivore Conservation: Contributions to the Workshop 26.11.97 at Landshut, Switzerland (KORA Bericht Nr. 3). — 1998